

TALABALARING KASBIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA FAN,  
TA'LIM VA ISHLAB CHIQARISHNING ROLI

Umarov Xusan Abduraximovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Texnologik ta'lrim  
metodikasi kafedrasini mudiri PhD, dotsent v.b.

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada butun dunyoda keng qo'llaniluvchi ta'limg tizimining, fan va ishlab chiqarish tizimlari bilan hamkorligini tashkil etish masalalari va uning bo'lajak kadrlarni tayyorlash jarayonidagi roli batafsil yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *hamkorlik, innovatsion hamkorlik, ta'limg, fan va ishlab chiqarish*

**Аннотация:** В данной статье подробно рассмотрены вопросы сотрудничества системы образования, широко используемого во всем мире, с наукой и производственными системами и его роль в процессе подготовки будущих кадров.

**Ключевые слова:** *сотрудничество, инновационное сотрудничество, образование, наука и производство*

Bugungi kunning tezkor globallashuv jarayonini inobatga olgan holda, yoshlarga berilayotgan e'tibor ularni ijodkor, barkamol, jismoniy jihatdan kuchli, sog'lom avlod bo'lib yetishishlari, o'z aqliy salohiyatini jismoniy yetukligi bilan uyg'unlashtira oladigan, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy saviyasini milliy, umuminsoniy qadriyatlar bilan yuksaltiradigan, ijtimoiy-siyosiy sohaga hamda kasbiy faoliyatga oid bilimlarni ham puxta egallagan bo'lishlariga qaratilgan.

Shu bois, ta'limg mazmunini modernizatsiyalash va ta'limg jarayoni ishtirokchilariga yetarli darajada shart-sharoitlar yaratib berish maqsadida butun dunyoda, shu qatori yurtimizda ham qator qonunlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda va ta'limg tizimida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy pedagogik oliy ta'limg muassasalari bo'lajak o'qituvchilarning ta'limg olish maskani bo'lish bilan bir qatorda, ma'naviy yetuk shaxs bo'lib yetishishlari markazi sifatida e'tirof etilmoqda. Shuning uchun mazkur ta'limg muassasalari o'zida erkin ilmiy ijod ruxi hukum surishiga imkon yaratibgina qolmay balki, ta'limg oluvchilarda mehnatsevarlik, qiziquvchanlik, intizomlilik, tashabbuskorlik, ijodiy fikrash va tashkilotchilik sifatlarini shakllanishi, bo'lajak "o'qituvchi" kasbi egalarini o'zligini anglashi, mustaqil fikrash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarning chuqurlashib hamda boyib borishi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi va shaxs sifatida rivojlanishiga ta'sir etuvchi barcha omillar takomillashib, mazmunan boyib borishi lozim.

Ta'limg amaliyotida hamkorlikni amalga oshirish ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o'rganishni talab etadi. Shu bilan birga,

# JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

## VOLUME-1, ISSUE-12 (30-September)

ta'kidlash kerakki, hamkorlikda innovatsiyani pedagogik fenomen sifatida talqin qilish birmuncha qiyin, chunki, "hamkorlik" kategoriyasi pedagogikaga ancha oldin kiritilgan bo'lib, u pedagogika fanida yetarli darajada rivojlangan va o'zining mustahkam o'rniiga ega. Shu bilan birga, ta'limda hamkorlikga yo'naltirilgan faoliyatning dolzarbli tufayli "koperatsiya", "innovatsion hamkorlik", "tayanch (kasbiy) kompetensiyalar" atamalari ta'limning yangi sifatlariga doir masalalarni muhokama etishda tobora ko'proq ishlatilmoqda, va natijada, borgan sari keng tarqalib bormoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, hozirda xech bir soha o'zi mustaqil ravishda rivojlanib, boshqa sohalar bilan birgalikda erishgan "rezonans effekti"ga erisha olmaydi. Ta'lim ham bundan mustasno emas. Ta'lim jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi, uni yangi bosqichga olib chiquvchi omillar sifatida fan va ishlab chiqarish sohalarini keltirish mumkin.

Bundan tashqari ta'lim muassasalari yetishtirib chiqarayotgan kadrlar sifatidan ular ham manfaatdor. Sababi pedagogik ta'lim muassasalari talabalari ya'ni bo'lajak o'qituvchilar ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlarini o'tash maskanlari bir vaqtning o'zida mazkur kadrlarning kelajakdagagi ishberuvchilari ekanligini ugnutmaslik lozim. Shu sababli mazkur "hamkor tashkilotlar" bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga har tomonolama tayyor bo'lishida muhim rol egallaydi va bevosita manfaatli ishtirok etadi.

Tadqiqot ishimiz doirasida olib borilgan tahlillar zamon talablariga mos keluvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy o'quv yurtlari muammolarini hal etishning asosiy yo'nalishi bu – butun dunyoda keng qo'llaniluvchi ta'lim tizimining, fan va ishlab chiqarish tizimlari bilan hamkorligini tashkil etish usullari ekanligini ko'rsatmoqda. Ishlarning ko'lami kengligiga qaramay, pedagogika fanida ta'lim sohasining fan va ishlab chiqarish bilan hamkorlikning talabalarning kasbiy rivojlanishiga ta'sirini ko'rsatadigan mukammal, ko'p qirrali ishlarning yetishmasligi aniqlandi. Buning uchun xal etilishi lozim bo'lgan eng muhim masala oliy ta'lim sohasidagi hamkorlik masalalarida tub o'zgarishlarni amalga oshirishdir.

Shu munosabat bilan jadal rivojlanayotgan davrda universitetlar o'z talabalarini kasbiy pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash dasturlarini amalga oshirish uchun yuqori texnologiyali korxonalar bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini bildirishlari kerak. Buning uchun universitetlar va tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini izchil rivojlantirish va shu bilan birga hamkorlikning innovatsion usullarini ishlab chiqishlari zarur.

Hamkorlikning asosiy g'oyasi jarayonning barcha ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirishdan iborat bo'lgan davrda, turli korxonalar, ilmiy-tadqiqot va ta'lim tashkilotlarining yangi davr texnologik talablariga javoban, hamkorlikning innovatsion shakliga tayyorligining birinchi qadami bo'lgan, hamkorlikning barcha ishtirokchilari o'rtasidagi faoliyatni rivojlantirish xamda talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan jarayondagi majburiyat va vazifalarni emas, balki ehtiyoj va imkoniyatlarni hisobga olgan holda shartnomaga tuzishdir.

Bugungi kunda respublikaning bir qator yetakchi universitetlari ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligida ma'lum darajada tajriba to'plashdi. Unga ko'ra mahalliy ishlab

# JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

## VOLUME-1, ISSUE-12 (30-September)

chiqarishni rivojlantirish maqsadida texnoparklarni, o'quv va ishlab chiqarish markazlarini, laboratoriyalarni va boshqa innovatsion tuzilmalarni universitet tarkibida bir butun klaster sifatida yaratishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Ushbu sharoitda ish beruvchi turli tashkilotlar va uyushmalar, bandlik xizmatlari kabilarning barchasi nafaqat ta'lif muassasasi "mahsulotlari"ni iste'molchisi, balki uning moliyaviy farovonligining manbai bo'lishlari imkoinin beruvchi ular o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Hozirgi yuzaga kelgan sharoitda milliy ta'lif an'analariga, pedagogik innovatsiyalarga va dunyoning yetakchi mamlakatlarining ilg'or tajribalariga asoslangan ta'lifning yangi yondashuvlari, shakllari va usullarini izlash zarur.

Talabalarning o'quv amaliyotlarini ishlab chiqarish, hamda pedagogik amaliyot o'tash muassasalarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini kiritgan holda o'tkazilishni tashkil etish va ta'minlash, oliy ta'lif muassasalari, professional ta'lif muassasalari, fan va ishlab chiqarishning uyg'unlashuvining amaliy tizimlarini yaratish va amaliyotga kiritish, ilmiy-pedagogik kadrlar va bo'lajak texnologik ta'lif o'qituvchilarining talabalarning ilmiytadqiqotlari va ijodiy faoliyatları orqali fan, texnika va texnologiyalarini rivojlantirish, respublikadagi texnologik ta'lif talaba kadrlari iste'molchilarining talab va extiyojlaridan kelib chiqib, o'zaro xamkorlik kelishuvlari asosida ta'lifning yangi yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish va amalga oshirish, xamkor tashkilot vakillari bilan xamkorlikda darslik, o'quv qo'llanmalar va uslubiy ko'rsatmalar yaratish talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirishning asosiy negizi xisoblanadi.

Demak, ta'lifning ishlab chiqarish va ilm-fan bilan hamkorlik faoliyati universitetning yagona ta'lif makonini shakllantirishga yordam beradi. Amaliyotda ishlab chiqarish va ilm-fan bilan hamkorlikda universitetning ta'lif makonini shakllantirish universitetlar, ilm-fan va ishlab chiqarishning axborot makonlari birlashtirish asosida amalga oshirilishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мезенин В.А., Чеганова Л.Н. Социальное партнерство как перспектива интегративных процессов в сфере профессионального образования Материалы I Международной научно-практической конференции (Екатеринбург, 25–26 января 2011 г.)
2. Umarov A.V., Umarova F.A., Umarova Z.A. Step towards the Development and New Prospects of Uzbek Higher Education / Journal La Edusci Vol.01, Issue 06, 2020. P.11-14.
3. Umarov Kh.A. Formation of students' professional readiness on the basis of innovative ways of cooperation in the conditions of uzbekistan (by the example of future teachers) / Journal of Central Asian Social Studies 1.01 (2020): 15-25.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-12 (30-September)**

---

4. Умарова ФА, Умаров Х.А. / Масофадан ўқитиш, интернет ва бошқа манбалардан фойдаланиш орқали дарс самарадорлигини ошириш / Сборники конференций НИЦ Социосфера 2016.

5. ХА Умаров, ЗА Умарова Использование электронно-образовательных ресурсов в целях создания образовательной экосистемы. / Сборник конференции: Перспективные информационные технологии. –Самара, 2018